

HOJI MUINNING MILLIY ADABIY TIL HAQIDAGI QARASHLARI

Doniyor Tojiboyev

Alisher Navoiy nomidagi nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Maqolada ma'rifatparvar jadid adibi Hoji Muinning XX asrning 20-yillarida milliy tilning sofligini saqlash, davr adabiy tilini shakllantirish, ona tili ta'limini takomillashtirish borasida ilgari surgan g'oya va qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: turkiy til, publitsistik uslub, leksik-morfologik me'yor, lug'aviy unsur, leksik fond, grammatik qurilish, lisoniy omil, sotsiolingvistik jarayon

HAJI MUIN'S VIEWS ON THE NATIONAL LITERARY LANGUAGE

Daniyor Tojiboyev

Tashkent state Uzbek Language and Literature University named after Alisher Navoi

Abstract: The article analyzes the ideas and views of the enlightened Jadid writer Haji Muin in the 20s of the 20th century regarding the preservation of the purity of the national language, the formation of the literary language of the period, and the improvement of mother tongue education.

Keywords: turkish language, journalistic style, lexical-morphological standard, lexical element, lexical fund, grammatical structure, linguistic factor, sociolinguistic process

Jadid publitsistikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini atroflicha o'rganish, o'sha davrning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy qarashlari va intilishlarini tadqiq etish nafaqat adabiyotshunosligimiz, balki milliy tilimiz tarixi, tilshunosligimiz uchun ham muayyan qimmatli ma'lumotlarni beradi. O'zbek adabiyoti tarixida "milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" sifatida e'tirof etilgan jadid adabiyoti o'zbek mumtoz adabiyoti bilan yangi o'zbek adabiyoti, ya'ni a'ana va yangilik kesishgan nuqtada rivoj topgan adabiyot hisoblanadi. XX asr boshlariga kelib, aynan jadid ma'rifatparvarlarimiz sa'y-harakatlari bilan o'zbek adabiyotida zamonaviy adabiy tur va janrlar shakllandi, rivojlandi. Jumladan, o'zbek adabiyotida publitsistika va dramaturgiyaning qaror topishi bevosita jadidlar bilan bog'liq ekani ayni haqiqat.

Xalq bilan yaqinlashishda, ularning maishiy, ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatishda, o'zlari ilgari surgan ma'rifatparvarlik g'oyalarini ularga singdirishda dramatik asarlar qatorida publitsistika ham muhim rol o'ynadi. Mazkur davr adabiyoti, milliy tili va tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shgan Turkiston

jadidlari orasida shoir va dramaturg, pedagog, publitsist va noshir Hoji Muin Shukrullo o'g'lining ijodiy merosi ham alohida o'rin tutadi.

Uning badiiy ijodi, ma'rifatparvarlik va jurnalistik faoliyati, ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlari yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan [1. 317]. Kuzatilishicha, olib borilgan tadqiqotlarning asosiy qismi adib asarlarining badiiy xususiyatlariga, uning noshirlik, publitsistik, maorif va pedagogik faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, Hoji Muinning tilshunoslikka oid qarashlari, u yaratgan badiiy, publitsistik asarlarning lisoniy xususiyatlari yuzasidan izlanishlar olib borilmagan. Vaholangki, adibning tilshunoslikka oid qarashlari o'sha davr matbuotida e'lon qilgan publitsistik maqolalarida aks etgan bo'lib, bu qarashlarning nazariy asoslarini o'rganish bugungi kun tilshunosligimiz uchun dolzarblik kasb etadi.

Professor Begali Qosimov ta'kidlaganidek, Hoji Muin jurnalist sifatida yuzlab maqolalar qoldirdi. Ularning qamrovi keng: oddiy xabardan adabiy-beografik ocherkkacha, luqmadan dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolarni ko'tarib chiqqan munozaragacha bor. Aytish kerakki, bularning ma'lum qismi haligacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda [5. 468]. Shunday ahamiyatli masalalardan biri uning publitsistikasidagi milliy til, ona tili ta'limi va tilshunoslikka oid masalalardir. XX asrning 20-30-yillarida shakllanayotgan yangi o'zbek adabiy tilining me'yorlarini belgilash, uning ilmiy-nazariy qonun-qoidalarini ishlab chiqish ishlarida zamonasining ilg'or ziyolisi sifatida Hoji Muin ham faol ishtirok etadi. Muallifning "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1918-yil 16-iyul sonidagi "Til masalasi" nomli maqolasida shunday jumlar keltiriladi: "Hozirda bizlar uchun eng muhim masalalardan biri, shubhasiz, til masalasidir. Biz Turkiston turklari ona tilimiz bo'lg'on turkiy til bilan birga yasharg'a va turkiy tilimizni o'z hayotimiz va huquqimiz bilan barobar muhofaza etarg'a tevishmiz... Turkiy tilimiz va adabiyotimizning takomilig'a tirishmagimiz va turkiy tilimizning Turkistonda rasmiy hukumat tili qilurg'a harakat etmagimiz lozimdir. Chunki muxtoriyatli Turkiston o'lkasining 95 foizini tashkil etgan biz, turk musulmonlarmiz. Shul sababli hozirgi zamonda turkiy tilimizni rus tili bilan teng huquqda barobar etarg'a va rasmiy hukumat tili yasarg'a haqlimiz..." [6. 86]. Ma'lumki, mazkur davrda Turkistonda milliy til masalasida jiddiy murakkab vaziyat yuzaga kelgan. Bunda muammoni nazariy hamda amaliy jihatdan hal qilishga ko'maklashuvchi, ko'p holda esa halaqit bergan ba'zi omillar mavjud bo'lgan. Davlat olib borayotgan til siyosati esa milliy tillarning rivoji va tengligiga emas, balki xalq va elat tillarining rivojiga to'sqinlik qilish, mamlakatning barcha ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalariga rus tilini zo'rlab yoyish va singdirishga qaratilgan. Buning natijasi mahalliy milliy tillarning funksional imkoniyatlarini nihoyatda chegaralashga olib kelgan. Davr ziyolisi sifatida bu holatni to'g'ri anglagan Hoji Muin yuqoridagi fikrlarida til sohasida hukmron bo'lgan bunday qarashlarga keskin munosabatda bo'lib, o'zbek milliy adabiy tilini

shakllantirish va rus tili bilan teng maqomda hukumat tili darajasiga ko'tarishda o'z fikrlarini ilgari surmoqda.

Muallif fikrida davom etar ekan, tilga milliylikning birinchi belgisi sifatida qarab, unga bo'lgan mas'uliyatsizlik, bepisandlik, hurmatsizlikni "jinoyat" darajasida baholaydi: "...Hozirda Samarqand musulmon shahar dumaxonasi bilan musulmon sho'rosi o'z taraflaridan musulmon idoralarig'a yuborilaturg'on rasmiy qog'ozlarni faqat ruscha yozib yubormakdadirlarki, bu ish o'z tilimiz haqida bir jinoyatdir" [6. 87]. Bu fikrlardan Hoji Muinning tilning xalq tarixi va taqdiridagi o'rni va rolini yuksak baholaganligini, vatanga, xalq tili va madaniyatiga bo'lgan muhabbatni yuksak qadrlaganligini tushunish qiyin emas.

Muallifning "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1918-yil 20-avgust sonida e'lon qilingan "Til masalasi" nomli ikkinchi maqolasidagi fikrlardan esa XX asr boshlaridagi davr adabiy tilining holati hamda mavjud sotsiolingvistik jarayon haqida tasavvur hosil qilishimiz mumkin: "...Turkiy tilimiz davlat tili bo'lib, Turkiston jumhuriyatidagi barcha hukumat musulmonlarig'a kirguzilganda, bu o'rinlarda yetisharliq mirzo va tarjumonlar til bilmaydirki, muning uchun zo'r mushkulot oldinda shoshib qolurmiz. Hozirgi mirzolarimiz bo'lsalar o'zlari turk o'g'li bo'la turib turkiy tilning qoidalarini yoki imloni bilmaydilarkim, yozaturg'on narsalari umum va ko'cha tilindan ozgina tafovutlidir" [6. 92]. Demak, mazkur davrda Turkistonda o'zbek tilini adabiy til darajasiga ko'tarishdagi mavjud muammolardan birinchisi adabiy tilning jonli xalq tili asosida to'la me'rlashib ulgurmaganligi bo'lsa, ikkinchisi hukumat va davlat idoralaridagi mas'ul shaxslarning turkiy til va turkiy yozuv imlo qoidalarini mukammal bilmasliklari bo'lgan.

Ma'rifatparvar adib Hoji Muin bu holatning asosiy sababini ona tili ta'limidagi mavjud muammolar bilan bog'laydi: "Biz turkcha qoidalarni bilmaganliklari uchun hozirgi mirzo va tarjumon birodarlarimizni ayblay olmaymiz, chunki alar va bizlarning hech qaysimiz muntazam maktablarda o'qib chiqmag'onmiz. Til qoidalarining ta'limi muntazam maktablarda bo'ladirki, bunday maktablar hanuz Turkistonimizda ochilg'on emas" [6. 92]. Shu o'rinda muallif maktab ta'limidagi ona tili o'qituvchilarining ham til bilimi bo'yicha yetarli ma'lumotga ega emasliklarini ta'kidlab shunday deydi: "Bizning muallim afandilarimiz ham til qoidalarini yaxshi bilmaydilarki, ushbu kungacha ba'zilar tarafidan yozilg'on maktab kitoblaridan bu ma'lum" [6. 92].

XX asr boshlaridagi o'zbek tilining mavjud holati, undagi fonetik-leksik, morfologik, imlo me'yorlarining to'la shaklda ishlab chiqilmaganligini muallif quyidagi fikrlarida afsus bilan tilga oladi: "Bizning turkiy tilimiz ishlanmag'on bir til bo'lib, muning sarf va nahvig'a oid hanuz biror turli risola bosilib chiqq'on emas" [6. 92]. Darhaqiqat, XX asrning 20-yillarida o'zbek tilining ilmiy grammatikasini tuzish o'zbek tilshunoslari oldida turgan asosiy muammolardan biri bo'lgan. Bu kunga

qadar tuzilgan grammatikalar rus, arab tillariga taqlid tariqasida yozilganligi sababli, muallif ularni o'zbek tilining asl tabiatidan kelib chiqmaganligiga ishora qilmoqda. Shuning uchun ham mazkur davrda Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" a'zolari o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganishga kirishadilar va o'zbek tili morfologiyasi (sarf) hamda sintaksis (nahf) iga oid dastlabki risolani yaratishga muvaffaq bo'ladilar.

Yana bir jihat maqolada muallif milliy til (o'zbek tili) ning sofligini saqlash, uni o'zga tillar tazyiqidan himoya qilish, rivojlantirish yo'llarini belgilash borasida ham ilg'or fikrlarni ilgari suradi va o'zga til istilohlarini og'zaki va yozma nutqda aralash qo'llanish holatini qattiq qorlaydi: "Bu so'ng yillarda (boxusus Rusiya inqilobidin keyin) bizning mirzolar orasida yomon bir odat joriy bo'la boshladiki, bular turkiy tilimizga ruscha so'zlar qo'shib yozaturg'on bo'ldilar" [6. 92]. Mana shu ma'noda Hoji Muinning lisoniy qarashlarida milliy tilning sofligi masalasi ham ustuvorlik qilgani kuzatiladi. Biroq Hoji Muin ham XX asr boshlarida turk shoiri Ziyo Ko'k Alp tomonidan asos solingan va tatar ziyolisi Ismoilbek Gaspirali tomonidan rivojlantirilgan turkiy tillarni va turk adabiyotini birlashtirish, maktablarda usmonli turk tilini, usmonli turk adabiyotini "ona tili" darslari o'rnida qabul qilish, shuningdek, tilni arabiy va forsiy unsurlardan tozalash targ'ib qilingan "panturkizm" g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan. Darhaqiqat, turkiy xalqlar XX boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohada yaqinlashish imkoniyatini izladilar. Davrning ilg'or ziyolilari tomonidan umumturkiy til va adabiyotni yaratish bo'yicha bir qator nazariy va amaliy harakatlar qilingan. Mana shunday harakatning natijasini boshqa o'zbek ziyolilari qatorida Hoji Muin publitsistik asarlari tilida ham kuzatish mumkin. Masalan, yuqorida tahlil qililingan maqolalar tilidagi *etarga tevishmiz, iste'mol etarga kerak, durust bilmaylar* kabi istiloh va jummalarga g'arbiy turkiy til unsurlari sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

Umuman olganda, XX asr boshlarida yuz bergan lingvistik jarayonda o'sha davrda faoliyat olib borgan bir qator mashhur adiblar, ma'rifatparvar ziyolilar, tilshunoslar, jurnalistlar qatorida Hoji Muin ham matbuot nashrlaridagi maqolalari bilan faol ishtirok etgan. Yuqoridagi fikrlar tahlili asosida adibning lingvistik qarashlaridagi muhim yo'nalishlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin: 1) milliy tilning sofligi saqlash va o'zbek tilini adabiy til darajasiga olib chiqish; 2) jonli xalq tili asosida adabiy tilning fonetik, leksik-morfologik, sintaktik me'yorlarini belgilash; 3) davr adabiy tilining ilmiy grammatikasini o'zbek tilining asl tabiatidan kelib chiqqan holda yaratish; 3) maktab va maorif tizimida ona tili darsliklarini takomillashtirish; 4) ona tili ta'limida ilg'or pedagog kadrlarni tayyorlash.

Xulosa qilishimiz mumkinki, buyuk ma'rifatparvar adib Hoji Muin matbuotdagi chiqishlarida jamiyatdagi boshqa ijtimoiy-siyosiy masalalar qatorida, milliy til, adabiy tilga munosabat, tilni davr talablariga moslash, uning umummilliy adabiy til

sifatidagi rivojlanish yo'llarini belgilash, maktab va maorif tizimida ona tilini o'qitishning samarali yo'llarini ishlab chiqish kabi muhim nazariy va amaliy, milliy va ma'rifiy muammolarga ham alohida diqqat qaratgan. Bu esa uning o'z davrining yetuk tilshunos olimi bo'lganidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Behbudiy, Fitrat, Elbek, Ashurali Zohiriylar asarlarining tili tadqiq qilindi, ularning yangi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojidagi o'rni va ahamiyati belgilandi. Ammo Hoji Muinning muharrirlik va noshirlik, dramatik asarlarining badiiy xususiyatlari yuzasidan ba'zi izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, adibning badiiy merosi tili, uning lisoniy qarashlari, o'zbek tilining mavqei (statusi), sofligi uchun olib borgan kurashlari yetarli tadqiq qilingan emas. Bu Hoji Muin publitsistik asarlari tilini lingvistik yo'sinda o'rganilmaganligiga ham tegishlidir. Mana shu nuqtai nazardan atoqli ma'rifatparvar adib Hoji Muin publitsistik asarlari tilini tadqiq qilish o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri ekani shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 317 б.
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 316-324.
3. Намозова Н. Ҳожи Муиннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент: 2005. – 26 б.
4. Қаршиева Г. Ҳожи Муин Шукрулло драматургиясининг ғоявий-бадиий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент: 2008. – 140 б.
5. Қосимов Б. Танланган асарлар. III жилдли, II жилд. – Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2022. – 640 б.
6. Ҳожи Муин. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 256 б.